

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

XAKIMOVA BARNO MURATOVNA

**SEL METODIKALARI VOSITASIDA
O‘SMIRLARDA MAS‘ULIYATLI QAROR QABUL QILISH
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xakimova Barno Muratovna

SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish
kompetensiyalarini rivojlantirish..... 3

Хакимова Барно Муратовна

Развитие компетенций ответственного принятия решений у подростков
с использованием SEL-методик..... 25

Khakimova Barno Muratovna

Development of responsible decision-making competencies in adolescents
through sel methodologies..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 56

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

XAKIMOVA BARNO MURATOVNA

**SEL METODIKALARI VOSITASIDA
O‘SMIRLARDA MAS‘ULIYATLI QAROR QABUL QILISH
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9502 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qoriniyoziytpmi.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xusanova Sumbul Islamovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Qodirova Feruza Usmanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Fargona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855)511-02-69; faks: (99855)511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Furqat ko‘chasi 174-uy. Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Quronov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

O.U.Musurmonkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.f.d. (PhD)

Sh.Q.Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda umumiy oʻrta taʼlimni zamonaviylashtirish, taʼlim-tarbiya jarayonlarini yangicha yondashuvlar bilan boyitish, jismoniy va aqliy tarbiya uygʻunligini taʼminlash dolzarblik kasb etmoqda. Maktab yoshidan boshlab oʻquvchilarning jismoniy sifatlarni takomillashtirish, bilim va koʻnikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shu bilan birga oʻquvchilarni ijtimoiy munosabatlarda faol boʻlishga oʻrgatish, ularni ijtimoiylashuvini, muloqotchanligini, shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan koʻplab taʼlimiy-tarbiyaviy va tashkiliy loyihalar, taʼlim dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu orqali oʻquvchilarni turli fanlar doirasida ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirokchi boʻlishiga erishish, fuqarolik pozitsiyasini erkin namoyon qilishlariga tayyorlashga qaratilgan taʼlim-tarbiya tizimini yaratish zarurati ortib bormoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarida umumiy oʻrta taʼlim tizimini modernizatsiyalash orqali oʻquvchilarni ham jismonan, ham ruhan rivojlantirish, shuningdek, fanlararo hamkorlik asosida oʻquvchilarda ijtimoiy faollik, kuchli fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilish, muloqotchanlik, ijtimoiy masʼuliyat, ijtimoiy munosabatlarda bagʻrikenglik, tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bois, dunyoning ilmiy salohiyati yuqori boʻlgan davlatlari tajribasi asosida oʻquvchilarni masʼuliyatli, anglangan ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, bu jarayonda ijtimoiy-emotsional taʼlim (SEL) metodikalarining oʻz-oʻzini anglash, oʻz-oʻzini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va masʼuliyatli qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllantirish imkoniyatidan foydalanish va bu orqali jamiyatda sogʻlom ijtimoiy munosabatlar yaratish vazifalari kundan-kunga ortib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi 232-sonli qarorida ham “2025/2026 oʻquv yilidan boshlab umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional taʼlim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish”¹ dolzarb vazifa sifatida belgilanishi orqali uzluksiz taʼlimning asosiy boʻgʻini boʻlgan maktab taʼlimida oʻquvchilar 5 ta ijtimoiy-emotsional (oʻz-oʻzini anglash, oʻz-oʻzini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va masʼuliyatli qaror qabul qilish) kompetensiyalariga oʻrgatish hamda ushbu jarayonga ota-onalar va keng jamoatchilik vakillarini jalb qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois ijtimoiy-emotsional taʼlim metodikalarini umumiy oʻrta taʼlim hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga kiritish asosida taʼlimni zamonaviylashtirishga doir koʻplab tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning uchun esa, oʻsmirlarda masʼuliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda SEL metodikalari taʼsirini oʻrganishga qaratilgan nazariy va metodologik tadqiqotlarni kengaytirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-sonli Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Qarori.

11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli, 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134 sonli farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli, 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash masalalariga oid turli yo‘nalish mutaxassisleri alohida e’tibor qaratib kelmoqdalar. Jumladan, respublikamiz olimlaridan R.X.Djurayev, X.Ibraimov, M.Abdullayeva, M.E.Abdullayev, Sh.O.Aripov, F.A.Akramova, Sh.A.Akramova, O.Jamoldinova, V.M.Karimova, N.Sh.Mullaboyeva, O.Musurmonova, N.M.Nagmetova, T.K.Narbayeva, N.Ortikov, M.Quronov, N.D.Qosimova, Z.M.Qurboniyozova, R.G.Safarova, M.M.Tilavova, A.T.Tilegenov, X.M.Tojiboyeva, M.M.Umarova, N.I.Xalilova, va B.X.Xodjayevlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan.

MDHda ham o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish va gender tarbiya nazariyasi ko‘plab pedagoglar va pedagogik fikr namoyondalari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, olimlaridan A.I.Altunin, N.I.Andreyeva, A.A.Derkach, E.A.Gapova, F.Ivanov, Dj.Karpara, R.Konnell, S.I.Kudinov, O.N.Molchanova, Ye.V.Zinko kabilarning ishlari bunga misol bo‘la oladi.

Shaxsda o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini baholash madaniyatini tarkib toptirish xarakteriga ko‘ra xorijlik olimlardan H.Andrade, A.Bandura, P.R.Boekaerts, D.Boud, G.T.L.Brown, G.Büttner, R.Deakin-Crick, C.Dignath, H.W.Goodrich, J.A.Greene, D.T.Griffie, L.R.Harris, D.Kostons, H.Langfeldt, E.Panadero, S.G.Paris, T.Sitzmann va B.J.Zimmermanlar ularni tarixiy tajriba, odob-axloq, o‘z-o‘zini anglash kabi substansional negizlarga ajratganlar.

O‘smir yoshdagilarni tarbiyalash, o‘z-o‘zini anglash va gender masalalari yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslash hamda maxsus tadqiq etish zaruratining

saqlanib qolayotganligi bu borada chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan "Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi" mavzusidagi olim ayollar innovatsion loyiha (2024-2025) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyatini asoslash hamda SEL metodikalarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;

o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik ish shakllari va metodlarini asoslash hamda jarayon modelini milliy tarbiya elementlarini qo'shish orqali takomillashtirish;

ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanganligini baholash mezon ko'rsatkichlarini aniqlash, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Namangan, Navoiy va Toshkent viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 1053 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, manbalar, o'quv ishlanmalari, darsliklari, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikalariga milliy tarbiya tizimida "Komil inson" konsepsiyasiga ko'ra ota-onaga hurmat va halollik kabi qadriyatlarni kiritish orqali o'smirlarda o'z xulqining oqibatlarini anglash va jamoaviy qaror qabul qilishga o'rgatish asosida takomillashtirilgan;

o'smirlarni mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatish strategiyalari qaror natijalarini tahlil qilish va o'z xatolaridan xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi "o'z

fikrimni tahlil qilaman”, “men boshqacha yo‘l tutganimda...” kabi refleksiya mashg‘ulotlari hamda “jamoaviy yechim”, “murosaga kelish san’ati” interfaol o‘yinlarini integrativ qo‘llash orqali ijtimoiy hamkorlik, empatiya va shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

SEL (Social Emotional Learning) metodikalari vositasida o‘smirlarni mas’uliyatli qaror qabul qilishga o‘rgatishning pedagogik modeli Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy merosi, “mehnat qilib halol yashash”, “el-yurtga foyda keltirish”, “katta-kichikka hurmat” kabi xalq pedagogik qadriyatlarini singdirish orqali ularda irodaviy barqarorlik va jamiyat oldidagi burchni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlanganligi samaradorligi murakkab vaziyatlarda muvozanatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini yuqori (ongli va mustaqil qaror qabul qilish), o‘rta (raqobatli vaziyatlarda yo‘l-yo‘riq asosida qaror qabul qilish) va quyi (tashqi ta’sirlar ta’sirida impulsiv qaror qabul qilish) darajalarda baholashning kriterial tizimini ishlab chiqish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish tendensiyalari, bu jarayonda ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari aniqlangan;

SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta’sir etuvchi omillar hamda pedagogik-psixologik yo‘nalishlari belgilab berilgan;

ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beruvchi usullar aniqlangan va tasniflangan;

SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanganligini aniqlash mezon ko‘rsatkichlari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv asosida tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan umumta’lim maktablari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalarida statistik ma’lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko‘ra tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik ish shakllari, usullari va yo‘nalishlarining tizimlashtirilganligi, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan usullar, metodlar va texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan

pedagogik jarayon va unga ta'sir etuvchi omillarning aniqlanganligi, didaktik ishlanmalar, ijtimoiy trening elementlarining o'quv topshiriqlari bilan bog'langanligi va tizimlashtirilganligi, dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikalariga milliy tarbiya tizimida "Komil inson" konsepsiyasiga ko'ra ota-onaga hurmat va halollik kabi qadriyatlarni kiritish orqali o'smirlarda o'z xulqining oqibatlarini anglash va jamoaviy qaror qabul qilishga o'rgatish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida 2024-2025 yillarda bajarilgan "Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi" mavzusidagi olim ayollar innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 22-oktabrdagi 03-33-2629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Komil inson" konsepsiyasiga ko'ra ota-onaga hurmat va halollik kabi qadriyatlarni kiritish orqali o'smirlarni o'z xulqining oqibatlarini anglash va jamoaviy qaror qabul qilishga o'rgatishga erishilgan;

o'smirlarni mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatish strategiyalari qaror natijalarini tahlil qilish va o'z xatolaridan xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi "o'z fikrimni tahlil qilaman", "men boshqacha yo'l tutganimda..." kabi refleksiya mashg'ulotlari hamda "jamoaviy yechim", "murosaga kelish san'ati" interfaol o'yinlarini integrativ qo'llash orqali ijtimoiy hamkorlik, empatiya va shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan YuNESK Oning rasmiy platformasida o'zbek tilida joylashtirilgan "Ijtimoiy-hissiy murabbiy" nomli onlayn platformani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 22-oktyabrdagi 03-33-2629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'smirlarni mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatish strategiyalari orqali ularda ijtimoiy hamkorlik, empatiya va shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirishga erishilgan;

SEL (Social Emotional Learning) metodikalari vositasida o'smirlarni mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatishning pedagogik modeli Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy merosi, "mehnat qilib halol yashash", "el-yurtga foyda keltirish", "katta-kichikka hurmat" kabi xalq pedagogik qadriyatlarini singdirish orqali ularda irodaviy barqarorlik va jamiyat oldidagi burchni his qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflari Namangan viloyati Namangan shahri 7-, 41- sonli, Davlatobod tumanidagi 57-sonli, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 27-, 35-sonli va Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi 8-, 15- sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotiga tatbiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 22-oktyabrdagi 03-33-2629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarni mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatishning pedagogik modeliga Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-

axloqiy merosi, “mehnat qilib halol yashash”, “el-yurtga foyda keltirish”, “kattakichikka hurmat” kabi xalq pedagogik qadriyatlarini singdirishga erishilgan;

o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlanganligi samaradorligi murakkab vaziyatlarda muvozanatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini yuqori (ongli va mustaqil qaror qabul qilish), o‘rta (raqobatli vaziyatlarda yo‘l-yo‘riq asosida qaror qabul qilish) va quyi (tashqi ta’sirlar ta’sirida impulsiv qaror qabul qilish) darajalarda baholashning kriterial tizimini ishlab chiqish asosida aniqlashtirishga oid mualliflik g‘oyalaridan “O‘zbekiston 24” IJOIDIY BIRLASHMASI” Milliy teleradiokompaniyasining DM “Dunyo bo‘ylab” telekanalida “Zamonaviy ta’lim va fan integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari”, “O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish”, “Yosh avlodni ilm-fanga jalb etish”, “Ta’lim tizimidagi yangi islohotlar” mavzusidagi ma’rifiy ko‘rsatuvlarni ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 15-sentabrdagi 06-09-1437-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smirlarda murakkab vaziyatlarda muvozanatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini yuqori, o‘rta va quyi darajalarda baholashning kriterial tizimini ishlab chiqishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda, xalqaro konferensiyalarda 2 ta, respublika konferensiyalarda 11 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan, o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik o‘ziga xos xususiyatlari

tadqiq etilgan. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalarining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.

XXI asrda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilmoqda. Shulardan biri – mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi bo'lib, u o'smir yoshdagilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotda ongli tanlov qilish, natijalarini baholash va javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatini ifoda etadi. Bu kompetensiyaning shakllanishi o'smir shaxsining yetukligi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi va kelgusida demokratik jamiyatda mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishi uchun zarur.

O'smirlik davri shaxsning intensiv rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda emotsional beqarorlik, o'ziga ishonch va o'zini anglashning kuchayishi, tengdoshlar ta'sirida qaror qabul qilish holatlari ko'plab ijtimoiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish – jamiyatdagi turli salbiy holatlarning (huquqbuzarliklar, xavfli odatlar, ijtimoiy beqarorlik) oldini olishning muhim omilidir.

YuNESKOning “2030 yilgacha ta'lim strategiyasi”da ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida barqaror taraqqiyot uchun mas'uliyatli fuqarolikni shakllantirish ko'rsatilgan. Shuningdek, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan ishlab chiqilgan “Global Competence Framework”da ham yoshlarning mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati global kompetensiyalar qatoriga kiritilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qabul qilingan qator hujjatlar ushbu masalani ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Jumladan, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi qonun, Prezidentning “2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi farmoni, “2030 yilgacha umumiy o'rta va oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi” yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilib belgilaydi. Demak, o'smirlarda ushbu kompetensiyani shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ta'lim amaliyotida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantirishda an'anaviy bilim berish metodlari yetarli emas. Bu jarayon uchun SEL (Social and Emotional Learning) metodikalari eng samarali vosita sifatida ko'rilmogda. Chunki, SEL metodikalarida: self-awareness (o'zini anglash), self-management (o'zini boshqarish), social awareness (ijtimoiy anglash), relationship skills (munosabat o'rnatish ko'nikmalari), responsible decision-making (mas'uliyatli qaror qabul qilish) komponentlari uyg'un holda qo'llaniladi. Shu bois SEL metodikalari ijtimoiy-pedagogik zaruratning yechimini ta'minlaydi.

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar, ayniqsa, o'smirlar uchun nafaqat bilim, balki hayotda zarur bo'lgan soft skills – muloqot, hamkorlik, o'zini boshqarish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalari muhim hisoblanadi. Bu ko'nikmalarni samarali rivojlantirishda ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL – Social and Emotional Learning) metodikalari asosiy o'rin egallaydi. SEL metodikalari pedagogik va psixologik jihatdan alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tahlil qilish o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur hisoblanadi.

O‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarining pedagogik-psixologik o‘ziga xos xususiyatlari

№	Asosiy yo‘nalish	Pedagogik xususiyatlar	Psixologik xususiyatlar	Amaliy natija
1	O‘zini anglash (self-awareness)	O‘quvchining shaxsiy qadriyatlari va maqsadini aniqlashga yo‘naltirish; Refleksiya mashg‘ulotlarini dars jarayoniga kiritish; O‘quvchini “men kimman?” savoli orqali ichki motivatsiyasini uyg‘otish	O‘smirda o‘z xatti-harakatlarini baholash, his-tuyg‘ularini anglash; O‘z kuchiga ishonch va pozitiv “Men” obrazini shakllantirish	O‘quvchi o‘z qarorlarining shaxsiy mas’uliyatini anglaydi, o‘zini qadrlash hissi ortadi
2	O‘zini boshqarish (self-management)	Muammoli vaziyatlarda o‘zini tutish bo‘yicha treninglar; “Stressni boshqarish” mashg‘ulotlari; Tartib, sabr va iroda tarbiyasiga yo‘naltirilgan pedagogik nazorat	O‘smirda emotsional barqarorlik, o‘z hissiyotini nazorat qilish; Impulsivlikni kamaytirish; Sokinlik va o‘zini tuta olishni o‘rgatish	Qaror qabul qilishda shoshqaloqlik kamayadi, o‘smir hissiyotlariga asoslanmagan holda fikrlashni o‘rganadi
3	Ijtimoiy xabardorlik (social awareness)	Guruhda o‘qitish, jamoaviy topshiriqlar, rolli o‘yinlar; hamdardlik, bag‘rikenglik va muloqot madaniyatiga oid darslar; Ijtimoiy loyihalarda ishtirokni rag‘batlantirish	O‘smirda boshqalar his-tuyg‘usini his etish, ijtimoiy rolni tushunish; Tashqi ta’sirni anglab, ijobiy reaksiyani shakllantirish	O‘quvchi boshqalar bilan muloqotda e’tiborli, empatik va murosali bo‘ladi
4	Tengdoshlar bilan munosabatni rivojlantirish (relationship skills)	“Tengdosh maslahat guruhi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish; O‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlikni o‘rgatuvchi mashg‘ulotlar; konfliktlarni tinch hal etish darslari	Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, tinglay olish madaniyatini shakllantirish; Ijtimoiy qo‘rquv va yakkalanish hissini kamaytirish	O‘quvchilar bir-birini tushunishni, jamoada hamkorlik qilishni o‘rganadilar
5	Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making)	Real hayotiy vaziyatlar asosida interfaol tahlil mashg‘ulotlari; “Tanlov oqibatlarini” texnikasi orqali ongli fikrlashni o‘rgatish; qaror qabul qilishda ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni hisobga olishga yo‘naltirish	O‘smirda tahliliy fikrlash, oqibatni oldindan baholash; ichki nazorat va iroda barqarorligi shakllanishi; tanlov uchun javobgarlikni his etish	Qaror qabul qilishda ongli yondashuv kuchayadi, shaxsiy mas’uliyat va mustaqil fikrlash rivojlanadi

Integrativlik – SEL metodikalari fanlararo yo‘nalishda qo‘llaniladi. Masalan, adabiyot, tarix, “tarbiya soati” darslari, sport yoki loyiha ishlari jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar birgalikda shakllantiriladi.

Amaliyotga yo‘naltirilganlik – SEL mashg‘ulotlarida o‘quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki turli hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni mashq qiladilar. “Muammoli vaziyatlar” (case study), “rol o‘ynash” (role play) va “qaror daraxti” metodlari pedagogik jihatdan eng samarali usullar hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya uyg'unligi – SEL metodikalarida ta'lim jarayoni tarbiya bilan uyg'un holda olib boriladi. Masalan, axloqiy dilemmalar ustida munozara qilish o'quvchilarda ham ma'naviy qadriyatlarni anglash, ham qaror qabul qilishni o'rgatadi.

Interaktivlik – jarayonda guruhiy ish, jamoaviy muhokama, debat va trening kabi usullar asosiy o'rin egallaydi. Bu o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularda mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Pedagogik jihatdan SEL usullari interaktiv ta'limni ta'minlaydi; psixologik jihatdan esa, o'smirlarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat shakllanadi. Masalan, “Rolli o'yin”larda o'quvchi turli hayotiy vaziyatda turli rolni bajarib, ham pedagogik maqsadga (ijtimoiy jarayonni anglashga), ham psixologik maqsadga (emotsiyalarni boshqarishga) erishadi. Shu bilan birga, “Hato tahlili” usuli orqali qaror qabul qilishda yo'l qo'yilgan xatolar tahlil qilinadi, bu o'smirlarda refleksiya ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya kuchayadi, mustaqillikka intilish ortib boradi. SEL metodikalari bu jarayonni nazorat va qo'llab-quvvatlash uchun samarali mexanizm hisoblanadi. Psixologik jihatdan, SEL usullari o'smirlarda tanqidiy fikrlash, muammolarni ijobiy yechish, ijtimoiy munosabatlarda tengdoshlar bosimiga berilmaslik kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Pedagogik jihatdan esa, ushbu metodikalar o'smirlarning shaxsiy tajribasini ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Pedagogik va psixologik xususiyatlarning uyg'unligi o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi.

So'nggi yillarda ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikalari xalqaro miqyosda keng tarqalmoqda. AQShda CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tashkiloti tomonidan SELning besh asosiy komponenti (self-awareness, self-management, social awareness, relationship skills, responsible decision-making) ta'lim dasturlariga integratsiya qilingan.

Finlyandiyada “phenomenon-based learning” tizimi orqali SEL fanlararo integratsiya asosida joriy etilmoqda. Janubiy Koreya va Singapurda esa, raqamli texnologiyalar asosida SEL jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu tendensiyalardan ko'rinib turibdiki, dunyo tajribasida SEL metodikalari bilim berishdan tashqari, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashning samarali vositasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va “Yoshlar siyosati” konsepsiyalarida yoshlarni mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi belgilangan. Bu esa, milliy ta'lim tizimida SEL metodikalari rivojlanishi uchun normativ-huquqiy zamin yaratadi. “Oila-maktab-mahalla” hamkorligi doirasida o'quvchilarni ma'naviy qiymatlarga asoslangan holda qaror qabul qilishga o'rgatish – SEL metodikalarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishning muhim yo'nalishidir.

Dissertatsiyaning **“O'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda SEL metodikalarining didaktik imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta'sir etuvchi omillar,

o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik ish shakllari va metodlari, SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning milliya tarbiya elementlarini qo'shish orqali takomillashtirilgan modeli tadqiq etilgan.

O'smirlik davri inson hayotida shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishning eng muhim bosqichidir. Bu davrda shaxsning identifikatsiya jarayoni kuchayadi, mustaqillikka intilish, mas'uliyatli qaror qabul qilish ehtiyoji sezilarli darajada oshadi. Biroq, o'smirlar ko'p hollarda tajriba va emotsional barqarorlik yetishmasligi tufayli qaror qabul qilishda xatolarga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun ularda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb yo'nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL – Social and Emotional Learning) metodikalari orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. SEL metodlari shaxsning bilish, his qilish va ijtimoiy munosabatga kirishish jarayonlarini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi – shaxsning hayotda mas'uliyatli, ongli va ijtimoiy ahamiyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: maqsad – o'smirlarda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirish, qaror qabul qilishda axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga tayanish ko'nikmasini shakllantirish. Vazifalar – kognitiv jarayonlarni faollashtirish (muammoni tahlil qilish, variantlarni baholash), emotsional o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarda adolatli va konstruktiv qaror qabul qilishni o'rgatish. Mazmun – o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tuzilgan keyslar, axloqiy dilemmalar, ijtimoiy voqealar tahlili. Shakllar – trening, seminar, debat, rolli o'yin, "qaror daraxti" mashg'ulotlari. Metodlar – kognitiv (muammoli savol, keys-tahlil), emotsional-refleksiv (refleksiya, "men-kontseptsiyasi"), ijtimoiy (guruhiy qaror qabul qilish, interfaol loyiha). Vositalar – multimedia resurslari, elektron simulyatsiyalar, milliy tarbiyaga oid adabiyotlar, interaktiv dasturlar. Natija – ijtimoiy mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi va ijodiy qaror qabul qiladigan o'smir shaxs.

Pedagogik jarayon samaradorligi qator tashqi va ichki omillarga bog'liq: Oila muhiti – ota-onalarning munosabati, oiladagi tarbiya uslubi va qadriyatlar o'smirning qaror qabul qilish uslubiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, demokratiyalil oilalarda o'smirlarda mustaqillik va mas'uliyat yuqori bo'ladi. Maktab muhiti – o'qituvchilarning pedagogik mahorati, SEL metodlarini qo'llash darajasi, sinfdagi ijtimoiy muhit o'smirlarning qaror qabul qilish tajribasini belgilaydi. Mahalla va jamoatchilik ta'siri – mahalla faollari, tengdoshlar va mahalliy ijtimoiy muhit ham o'smirlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli muhit – internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar oqimi o'smirlarda tezkor qaror qabul qilish holatlarini ko'paytirmoqda. Bu jarayonda pedagoglar yoshlarni tanqidiy fikrlashga va ma'lumotni saralashga o'rgatishi zarur. Shaxsiy omillar – o'smirning individual qobiliyatlari, shaxsiy motivatsiyasi, qiziqishlari hamda o'z-o'zini baholash darajasi.

Rolli o‘yin – “Sinfidagi mojaro” mashqi orqali o‘smirlar turli rollarda ishtirok etib, vaziyatni hal qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi va o‘z qarorining ijtimoiy oqibatini baholaydi. Case-study (keyc-tahlil) – hayotiy vaziyat (masalan, internetdagi salbiy ta’sirga qarshi qaror qabul qilish) muhokama qilinadi. Refleksiya mashg‘ulotlari – har bir qarordan keyin o‘z his-tuyg‘ularini va harakatlarini tahlil qilishga o‘rgatish. Amaliyotda qo‘llaniladigan ish shakllari va usullar o‘smirlarda mustaqillik, ijtimoiy mas’uliyat va emotsional barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘smirlik davrida shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi shakllanadi, mustaqillik va tengdoshlar bilan munosabatlarda mas’uliyat hissi kuchayadi. Biroq, qaror qabul qilish jarayonida ko‘pincha emotsional ta’sir, tengdoshlar bosimi va axloqiy dilemmalar katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik ish shakllari va metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. SEL metodikalari bu jarayonda o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, his-tuyg‘ulari va ijtimoiy munosabatlarini uyg‘un tarzda rivojlantirishni ta’minlaydi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik ish shakllari quyidagilar:

Dars jarayonidagi shakllar: Keys-tahlil – hayotiy muammoli vaziyatlar tahlili orqali qaror qabul qilish mashq qilinadi; “Insert” usuli – matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi qaror qabul qilishda fakt va xulosani farqlashni o‘rganadi; “Qaror daraxti” – qaror variantlarini chizma orqali tahlil qilish, oqibatlarini bashorat qilish.

Sinfidan tashqari ish shakllari: debat va munozaralar – ijtimoiy muammolar yuzasidan fikr almashish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish va adolatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi; treninglar – ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni (self-management, social awareness) amaliyotda mustahkamlaydi; rolli o‘yinlar – turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali o‘smirlarning turli nuqtai nazardan qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Oila-maktab-mahalla hamkorligidagi ish shakllari: ijtimoiy loyihalar – ekologik aksiyalar, volontyorlik ishlari, jamoaviy tadbirlar; mahalla kengashi bilan hamkorlik – kattalar bilan muloqot orqali mas’uliyat hissini shakllantirish; oilaviy munozaralar – ota-onalar bilan ijtimoiy va axloqiy masalalarni muhokama qilish orqali qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantirish.

SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik ish shakllari samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi: faol ishtirok – o‘quvchining mashg‘ulotlarda faol qatnashishi, qaror qabul qilish jarayoniga qo‘shilishi; mustaqil qaror qabul qilish – o‘quvchining mustaqil fikr bildirishi va tanlovini asoslashi; ijtimoiy mas’uliyatni anglash – qaror natijasining jamiyat uchun ahamiyatini anglay olish; xatolar tahlili – qabul qilingan qarorning ijobiy va salbiy jihatlarini tanqidiy tahlil qilish qobiliyati.

Pedagogik ish shakllari (dars, sinfdan tashqari, oila-maktab-mahalla) o‘smirlarning ijtimoiy muhitda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Ta’limning frontal, guruh va individual tashkiliy shakllari yuzasidan ko‘plab ilmiy adabiyotlarda pedagogik izlanishlar natijalari bayon etilgan. Biz ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishda klasterlarni o‘zaro bog‘langan guruhlar va jarayonda ma’lum ish faoliyatiga ixtisoslashgan tegishli tarmoqdagi

guruhlar (dialel) sifatida o'rgandik. Ta'lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterdan foydalanishning samarali metodik va axborot – maslahat bilan ta'minlanishi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning shakllanishi ko'pincha barcha qolgan ishtirokchi (guruhlar) larni birlashtiruvchi integrator (o'qituvchi, moderator, kordinator va h.k) atrofida yuz berishi tufayli samadorlikni baholash integratorning faoliyati doirasida bo'ladi.

Klasterni shakllantirishda integratsiyalashayotgan guruhlarini birlashtirish guruhlar maqsadlarining kesishuvidan kelib chiqadi.

Ta'lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning asosiy xususiyatlaridan biri butun tizimni bosh strategiyasini belgilab beruvchi boshqaruvchisi o'qituvchi, moderator, kordinator va h.k.


SEL metodlari kognitiv, emotsional va ijtimoiy-faoliyat usullari uyg'unligi asosida qo'llanilganda, o'smirlarda to'laqonli qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Samaradorlik mezonlari faol ishtirok, mustaqillik, ijtimoiy mas'uliyat va xatolar tahlili orqali aniqlanadi. Interaktiv texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlar bu jarayonda samadorlikni yanada oshiradi. O'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish – global miqyosda ham, milliy ta'lim tizimida ham ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. U o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlarni, balki hayot uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni ham shakllantiradi – o'z his-tuyg'ularini anglash, xulq-atvorni boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, mas'uliyatli qaror qabul qilish va psixologik barqarorlikni saqlash kabi.

Tez o'zgarayotgan dunyo, raqamli transformatsiya va kuchayib borayotgan ijtimoiy chaqiriqlar sharoitida ta'lim faqat bilim berish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Innovatsion rivojlanishga intilayotgan mamlakat tanqidiy fikrlaydigan, jamoada ishlay oladigan, empatiya va hurmatni namoyon etadigan, stressni boshqara oladigan hamda yangi sharoitlarga moslasha oladigan avlodga muhtoj. Aynan mana shu sifatlar ijtimoiy-emotsional ta'lim orqali rivojlanadi.

Har bir davlat o'z ta'lim tizimini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda. Chunki, yoshlar nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalarni, balki o'z xalqiga xos ma'naviy meros, an'ana va tarbiya elementlarini ham o'zlashtirishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikalarini milliy tarbiya elementlari bilan uyg'unlashtirish – o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modelini yaratish imkonini beradi.

SEL metodikalarini va milliy qadriyatlar sintezi tufayli tarbiyaviy jarayon yanada ongli, madaniy jihatdan mazmunli va real hayotiy amaliyotga yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar – o'zini boshqarish, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, muloqot olib borish, o'z xatti-harakatining oqibatlarini tahlil qilish – jamiyatning an'anaviy ma'naviy-axloqiy me'yorlarida chuqur tayanch topadi. Natijada, o'smir nafaqat tanlovni oqilona baholashni, balki ichki axloqiy tamoyillarga, madaniy identitetga hamda oila, jamiyat va davlat oldidagi burch hissiga tayangan holda qaror qabul qilishni o'rganadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli

Berilgan SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli asosida quyidagi SEL metodikalari asosida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish milliy tarbiya elementlari bilan takomillashtirilgan jadval keltirilgan (2-jadval).

SEL metodikalari asosida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning milliy tarbiya elementlari bilan takomillashtirilgan jadvali

Model komponentlari	Mazmuni (SEL metodikalari asosida)	Qo‘shilgan milliy tarbiya elementlari	Kutilayotgan pedagogik-psixologik natijalar
Maqsadli komponent	O‘smirlarni ijtimoiy-emotsional rivojlantirish orqali mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish	Tarbiya tizimida “komil inson” konsepsiyasi, ota-onaga hurmat, halollik va odoblilik qadriyatlarini singdirish	O‘quvchi o‘z qarorlariga axloqiy va ijtimoiy javobgarlik bilan yondashadigan, milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida kamol topadi
Nazariy-metodologik komponent	SELning 5 asosiy kompetensiyasi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatni rivojlantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish	Sharq mutafakkirlarining axloqiy-psixologik merosi (Farobiy, Navoiy, Avloniy) asosida sabr, andisha, mehr-oqibat, adolat qadriyatlarini qo‘llash	Milliy tarbiya va zamonaviy psixologik yondashuv uyg‘unlashib, shaxsning emotsional-axloqiy rivoji ta’minlanadi
Motivatsion komponent	O‘quvchida ijobiy ichki rag‘bat, o‘z kuchiga ishonch, ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otish	“Mehnat qilib halol yashash”, “el-yurtga foyda keltirish”, “kattakichikka hurmat” singari xalq pedagogik qadriyatlari	O‘quvchilarda mas’uliyat, irodaviy barqarorlik va jamiyat oldidagi burchni his qilish ko‘nikmalari rivojlanadi
Tashkiliy-amaliy komponent	SEL metodlari: rolikli o‘yin, “hayotiy vaziyat” tahlili, “hissiyot kundaligi”, refleksiya mashg‘ulotlari, guruhli treninglar	Milliy marosimlar, xalq og‘zaki ijodi, oila va mahalla bilan hamkorlikda tarbiyaviy tadbirlar (masalan, “Odob saboqlari”, “Yoshlar bilan suhbat”)	O‘quvchi tajribasi, his-tuyg‘usi va milliy muhit o‘rtasida uzviy bog‘lanish vujudga keladi, tarbiya ta’siri kuchayadi
Hamkorlik komponenti	SEL yondashuvi asosida maktab-oila-mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish	Milliy qadriyatlar asosida jamoaviylik, oila birligi, mahalla birdamligini mustahkamlovchi an’analar (hashar, mehmondo‘stlik, maslahatlashuv)	Ijtimoiy rehabilitatsiya muhiti shakllanadi, o‘quvchilarning ijobiy xulq-atvori mustahkamlanadi
Baholash va refleksiya komponenti	O‘quvchilarning qaror qabul qilishdagi o‘rishini baholash uchun SEL mezonlari (motivatsion, irodaviy, kommunikativ, refleksiv)	O‘zini va boshqani baholashda odob-axloq me’yorlari (“andisha”, “uyat”, “vijdon”)ga asoslanish	O‘quvchi o‘z xatolaridan saboq olish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rganadi; shaxsiy rivojlanish traektoriyasi shakllanadi

Mazkur jadval o'zida zamonaviy SEL metodikalarining kognitiv va emotsional jihatlarini hamda milliy tarbiya tizimining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtirgan. Shu orqali o'smir shaxsining hissiy barqarorligi, mas'uliyatli fikrlashi, o'z xatti-harakatiga axloqiy javobgarligi va jamiyat bilan ijtimoiy muvofiqligi ta'minlanadi. Uyg'unlashtirilgan jadvaldan foydalanish – milliy va umuminsoniy tarbiya jarayonini uyg'unlashtirgan holda jamiyat uchun mas'uliyatli avlodni tayyorlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“SEL metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmning samaradorligi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda tadqiqotga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tadqiq etilgan.

Tajriba-sinov ishlari Namangan, Navoiy va Toshkent viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etildi. Obyektiv shart-sharoitlarda so'rovnoma va anketa savollariga javob olish uchun tajriba va nazorat guruhlari bo'yicha jami 1053 nafar respondent o'quvchilar jalb etildi. So'rovnoma va anketa savollariga olingan natijalar quyidagi ko'rinishda umumlashtirildi.

Mazkur bobda biz ijtimoiy-emotsional ta'lim metodikalari vositasida o'smirlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan usul va metodikalarni qo'llashdan oldin pedagog, psixologlarning ish uslublarini o'rganishga harakat qildik. Shu maqsadda dastlab pedagog, psixologlar uchun anketa so'rovlarini tashkil etdik. Anketa so'rovlari asosida amalga oshirilgan **ta'kidlovchi tajriba-sinov** ishlarida Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlari umumta'lim maktablaridan pedagog, psixologlar ishtirok etdilar.

